



ANALYSIS AND SYNTHESIS OF THE UZBEKISTAN SOCIAL STATE MODEL BASED ON WESTERN AND EASTERN EXPERIENCE

Sirojbek Sultanov

Associate Professor, PhD

Tashkent State Transport University

E-mail: sirojbek.sultanov@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: legal literacy, legal culture, national tradition, modern value, mahalla, human rights, rule of law, gender equality, inclusiveness, mediation, digital ethics, civil society.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: The article analyzes the theoretical and practical foundations of the harmony between national traditions and modern values in the process of forming legal literacy in the conditions of New Uzbekistan. The study interprets legal literacy not just as a set of normative knowledge, but as a complex competence that is manifested in the value system, beliefs and practical behavior of an individual. It is shown that the main elements of national traditions - mahalla, aksakol, andisha, respect and compromise - create spiritual and legal mechanisms of social control and balanced relations.

O'ZBEKISTON IJTIMOIIY DAVLAT MODELINING G'ARB VA SHARQ TAJRIBASI ASOSIDA TAHLILI VA SINTEZI

Sirojbek Sultanov

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, PhD

E-mail: sirojbek.sultanov@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, milliy an'ana, zamonaviy qadriyat, mahalla, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, gender tengligi, inklyuzivlik, mediatsiya, raqamli etika, fuqarolik jamiyati.

Annotatsiya: Maqola Yangi O'zbekiston sharoitida huquqiy savodxonlikni shakllantirish jarayonida milliy an'analar va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qiladi. Tadqiqotda huquqiy savodxonlik shunchaki normativ bilimlar majmui emas, balki shaxsning qadriyatlar tizimi, e'tiqodi va amaliy xulq-

atvorida namoyon bo'ladigan kompleks kompetensiya sifatida talqin etiladi. Milliy an'analarning asosiy elementlari – mahalla, oqsoqollik, andisha, hurmat va murosa – ijtimoiy nazorat va muvozanatli munosabatlarning ma'naviy-huquqiy mexanizmlarini yaratgani ko'rsatiladi.

АНАЛИЗ И СИНТЕЗ МОДЕЛИ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ЗАПАДНОГО И ВОСТОЧНОГО ОПЫТА

Сирожбек Султанов

Доцент, PhD

Ташкентского государственного университета транспорта

E-mail: sirojbek.sultanov@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правовая грамотность, правовая культура, национальная традиция, современные ценности, махалля, права человека, верховенство права, гендерное равенство, инклюзивность, медиация, цифровая этика, гражданское общество.

Аннотация: В статье анализируются теоретические и практические основы гармонии национальных традиций и современных ценностей в процессе формирования правовой грамотности в условиях нового Узбекистана. В исследовании правовая грамотность трактуется не просто как совокупность нормативных знаний, а как сложная компетенция, проявляющаяся в системе ценностей, убеждениях и практическом поведении личности. Показано, что основные элементы национальных традиций – махалля, аксакол, андиша, уважение и компромисс – создают духовно-правовые механизмы социального контроля и сбалансированных отношений.

Kirish. O'zbekistonda ijtimoiy davlat kontsepsiyasining shakllanishi, uning zamonaviy mazmuni va istiqbollari masalasi jamiyat taraqqiyotining falsafiy-ijtimoiy asoslarini chuqur anglashni talab etuvchi murakkab va ko'p qirrali masaladir. Bu muammo nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy islohotlar bilan, balki millatning ma'naviy ehtiyoji, fuqarolik ongining rivojlanishi va tarixiy tafakkurning evolyutsiyasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Ijtimoiy davlat g'oyasi inson tabiatini falsafiy nuqtai nazardan anglash, uning jamiyatdagi o'rni va qadrini belgilash masalasini o'z ichiga oladi. Shu ma'noda, ijtimoiy davlat bu – jamiyat va davlat munosabatlarning yangi, insonparvar, ma'naviy jihatdan barkamol shaklidir. Uning mohiyati inson qadrini eng oliy qiymat sifatida tan olish va har bir fuqaroning farovon hayot kechirishi uchun zarur siyosiy, huquqiy hamda iqtisodiy sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

O'zbekistonda bu g'oyaning ildizlari milliy davlatchilik an'analari, Sharq falsafasi va ma'naviyati, islom sivilizatsiyasida shakllangan adolat, barobarlik va ehsonparvarlik tamoyillariga borib taqaladi. Tarixiy jihatdan olib qarganda, xalq boshqaruvida "odam bolasi - eng ulug' ne'mat" degan g'oya, davlatning vazifasi faqat hokimiyatni amalga oshirish emas, balki fuqarolarning hayotini yaxshilash, adolat va tartibni ta'minlash ekanligi haqidagi fikrlar ustuvor bo'lgan. Bu fikrlar Forobiyning "Fozil shahar aholisi", Ibn Sinoning "Siyosat ilmi", Nosiriddin To'sining "Axloqi Nosiriy" kabi asarlarida falsafiy asosini topgan bo'lib, inson va jamiyat munosabatlarini ijtimoiy ideal nuqtai nazaridan talqin etgan. Shu ma'noda, O'zbekistondagi ijtimoiy davlat g'oyasi faqat zamonaviy siyosiy kontseptsiya emas, balki tarixiy-falsafiy evolyutsiyaning uzviy davomidir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyillarini shakllantirish yangi mazmun va shakl kasb etdi. Bu jarayonda milliy davlatchilik g'oyasi va bozor islohotlari bir-biriga uyg'un holda rivojlandi. Ilgarigi paternalistik, markazlashgan boshqaruv tizimi o'rniga inson manfaatiga qaratilgan ijtimoiy yo'naltirilgan davlat kontseptsiyasi ilgari surildi. Bu kontseptsiyaning falsafiy asosi - "inson qadri uchun" tamoyilidir. U faqat huquqiy yoki iqtisodiy kategoriya emas, balki jamiyatning ma'naviy ongidagi tub o'zgarishni ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy davlat - bu inson va davlat o'rtasidagi yangi ijtimoiy shartnoma, ya'ni davlatning barcha faoliyati insonning erkinligi, farovonligi va qadr-qimmatiga qaratilgan tizim sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston ijtimoiy davlat modelini tahlil qilishda uning G'arb va Sharq tajribasi bilan bog'liq jihatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. G'arbda ijtimoiy davlat g'oyasi industrial jamiyatning ijtimoiy muvozanatini saqlash vositasi sifatida shakllangan bo'lsa, Sharqda u ma'naviy mas'uliyat va jamoaviylik tamoyillari bilan chambarchas bog'langan. O'zbekiston tajribasida esa mazkur ikki yo'nalishning sintezi kuzatiladi: bir tomondan, bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyati institutlariga tayangan liberal-demokratik g'oyalar amalga oshirilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy an'analar, insonparvarlik va ijtimoiy hamjihatlik tamoyillari saqlanib qolgan. Bu o'ziga xos sintez - ijtimoiy davlatning "o'zbek modeli"ni yaratishga olib keldi.

Shu bilan birga, ijtimoiy davlatni barpo etish jarayonida qator muammolar ham mavjud. Ular jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, aholi demografiyasidagi dinamika, ekologik muammolar, migratsiya va global raqobat kabi omillar bilan bog'liqdir. Zamonaviy O'zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat falsafasi bu muammolarga faqat iqtisodiy yoki ma'muriy yechim topish orqali emas, balki jamiyat ongini yangilash, fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish va ma'naviy barqarorlikni ta'minlash orqali javob berishi lozim. Inson qadrini ulug'lash, ijtimoiy

adolatni ta'minlash va barqaror taraqqiyotni kafolatlash - bugungi islohotlar falsafasining uzviy tarkibiy qismiga aylangan. Shunday qilib, mazkur bobda O'zbekistonda ijtimoiy davlat kontsepsiyasining tarixiy-falsafiy ildizlari, uning G'arb va Sharq tajribalari asosidagi tahlili hamda bu tizimning zamonaviy muammolari va istiqbollari chuqur ilmiy tahlil etiladi. Bu tahlil ijtimoiy davlatni faqat siyosiy institut emas, balki insonparvar taraqqiyotning ma'naviy va falsafiy tizimi sifatida anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ijtimoiy-falsafiy tahlil metodlariga tayanib olib borildi. Maqolaning metodologik asosi G'arb va Sharq ijtimoiy tafakkuri, zamonaviy falsafiy paradigmalarning uyg'unlashuvi hamda O'zbekistonning milliy rivojlanish modeli bilan bog'liq konseptual yondashuvlarga asoslanadi.

Dialektik yondashuv. Tadqiqotda ijtimoiy davlat kontsepsiyasining rivojlanishi dialektik tahlil nuqtayi nazaridan o'rganildi. Ya'ni, G'arbning huquqiy-demokratik modeli bilan Sharqning axloqiy-ma'naviy tizimi o'rtasidagi qarama-qarshilik va ularning o'zaro uyg'unlashuv jarayoni tahlil qilindi.

Qiyosiy (komparativ) tahlil usuli. Ijtimoiy davlat g'oyasining G'arb (Platon, Aristotel, Rawls, Habermas) va Sharq (Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Ibn Xaldun) tafakkuridagi talqinlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning O'zbekiston modelidagi integratsiyasi ochib berildi.

Aksiologik yondashuv. Tadqiqotda "adolat", "erkinlik", "ma'naviyat", "mas'uliyat" kabi aksiologik (qadriyatga asoslangan) kategoriyalar ijtimoiy davlatning falsafiy mohiyatini tushuntiruvchi asosiy mezon sifatida o'rganildi. Ushbu yondashuv yordamida O'zbekiston modelining ma'naviy-axloqiy negizi tahlil qilindi.

Tarixiy va sivilizatsion tahlil. Ijtimoiy davlat kontsepsiyasining shakllanish jarayoni tarixiy bosqichlar kesimida o'rganildi. Sharq va G'arb sivilizatsiyalarida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabat evolyutsiyasi O'zbekiston tajribasi bilan bog'lanib, sivilizatsion sintez sifatida talqin etildi.

Gnoseologik va hermenevtik usullar. Falsafiy manbalar - Forobiy, Aristotel, Rawls, Habermas, Mirziyoyev kabi mualliflarning asarlaridagi g'oyalar hermenevtik tahlil asosida talqin qilindi. Shuningdek, "ijtimoiy adolat" va "inson qadri" tushunchalarining mazmuni gnoseologik (bilish nazariyasi) nuqtayi nazaridan tahlil etildi.

O'zbekiston ijtimoiy davlat modelini falsafiy jihatdan tahlil etish bugungi globallashuv sharoitida nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy zarurat, balki inson qadri, ma'naviy qadriyatlar va jamiyatning aksiologik asoslari bilan bog'liq masaladir. 2023-yilgi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "O'zbekiston - ijtimoiy davlat" tamoyilining

mustahkamlanishi ushbu modelning falsafiy va siyosiy asoslarini bir butun tizim sifatida shakllantirdi.

Ijtimoiy davlat tushunchasi mohiyatan adolat, tenglik va inson sha'nini ta'minlovchi ijtimoiy tuzumni anglatadi. Uning falsafiy ildizlari G'arbning liberal-demokratik va huquqiy paradigmasi hamda Sharqning axloqiy-ma'naviy tafakkuri bilan uzviy bog'liqdir. Zamonaviy O'zbekiston tajribasi esa shu ikki an'anani sintezlab, yangi turdagi "insonparvar ijtimoiy sivilizatsiya" modelini yaratmoqda.

G'arb falsafasidagi ijtimoiy davlat tamoyillari. G'arb tafakkurida ijtimoiy davlat konsepsiyasi inson huquqlari, tenglik va konstitutsional adolat tamoyillariga asoslanadi. Platon "Davlat" asarida adolat asosida boshqarilgan jamiyatni ideal siyosiy shakl deb ta'riflaydi. Aristotel esa "fuqarolarning yaxshi hayot kechirishi"ni davlatning asosiy maqsadi sifatida ko'rsatadi (Aristotel, 2004).

Yangi davrda J. Locke davlatning vazifasini insonning tabiiy huquqlarini himoya qilishda, Kant esa "fuqarolarning erkinligini umumiy qonun orqali muvofiqlashtirish"da deb bilgan. XIX–XX asrlarda T. Marshall, J. Rawls, A. Giddens kabi olimlar ijtimoiy tenglik, fuqarolik huquqlari va adolat g'oyalarini rivojlantirib, "farovonlik davlati" (welfare state) nazariyasini shakllantirdilar.

J. Rawlsning "Adolat nazariyasi" asarida adolat - eng kam imkoniyatli qatlamlar manfaatlarini ustuvor qo'yish orqali jamiyat barqarorligini ta'minlovchi tamoyil sifatida talqin etiladi. G. Esping-Andersen esa ijtimoiy davlatni "kapitalizmni insoniylashtiruvchi mexanizm" sifatida ko'rsatadi (Esping-Andersen, 1990). Shuningdek, A. Giddens "Uchinchi yo'l" konsepsiyasida zamonaviy ijtimoiy davlatni "fuqarolik ishtirokini rag'batlantiruvchi faol tizim" sifatida izohlaydi.

Demak, G'arb modelida ijtimoiy davlat - bu iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va fuqarolik erkinligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi huquqiy-institutsional tizimdir.

Tahlil va natijalar. Sharq tafakkurida ijtimoiy davlatning ma'naviy asoslari. Sharq falsafasida ijtimoiy davlat konsepsiyasi axloqiy tartib, adolat va jamoaviylik g'oyalari bilan bog'liq. Abu Nasr Forobiy "Fozil shahar ahlining qarashlari" asarida "davlatning maqsadi - insonni saodatga yetkazish" ekanini, bu esa adolat, aql va rahm-shafqat birligiga tayanishini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"da "adolat hukmdorning ziynati, zulm esa davlatni yemiruvchi illat" deya yozadi. Ibn Xaldun esa "Muqaddima"da jamiyatning barqarorligini "asabiyya" - ijtimoiy birdamlik va adolat bilan izohlaydi.

Sharq tafakkurida davlat faqat huquqiy institut emas, balki ma'naviy-organik tizim sifatida qaraladi. Davlatning barqarorligi rahbarlarning fazilati, axloqiyligi va jamiyatdagi ishonch darajasi bilan belgilanadi. Shu bois, Sharq ijtimoiy davlatining asosi - axloqiy mas'uliyat, birdamlik va vijdon tamoyillaridir.

O'zbekiston ijtimoiy davlatining shakllanish falsafasi. O'zbekiston tajribasi G'arbning huquqiy-institutsional mexanizmlari va Sharqning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini uyg'unlashtirgan sintez modelidir. Bu yondashuv "inson qadri ustuvor" paradigmasiga tayanadi. O'zbekiston modeli paternalistik emas, balki ishtirokchi va subsidiar xarakterga ega - davlat fuqarolarning ijtimoiy faolligini rag'batlantiradi, mahalla va nodavlat institutlarni ijtimoiy hamkorlik tizimiga jalb etadi.

A. Sattorov bu jarayonni "ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot" sifatida talqin qilib, O'zbekiston modelining mohiyatini "hamjihatlik va raqobat o'rtasidagi muvozanat"da ko'radi. Shu bilan birga, D. Ernazarov va B. Ismoilovlar tanqidiy tarzda ta'kidlaganidek, bu modelning samaradorligi ijtimoiy tafakkurning ma'naviy yangilanishiga ham bog'liq.

Nazariy tahlil. Milliy olimlar va zamonaviy konsepsiyalar. O'zbekistonlik tadqiqotchilar ijtimoiy davlatning falsafiy, huquqiy va aksiologik jihatlarini turlicha talqin etishadi:

Y. Ernazarova – ijtimoiy davlatning epistemologik asosi "davlat xizmatchisining axloqiy mas'uliyati"da deb biladi; bu fikr Forobiyning "fozil shaxs" konsepsiyasi bilan uyg'un. B. Malikov – "axloqiy fazilatlar davlatning ijtimoiy imiji va ishonch kapitalini belgilaydi" degan yondashuvni ilgari suradi. Y. Isomiddinov – korrupsiy "ijtimoiy ongni yemiruvchi destruktiv hodisa" sifatida ijtimoiy davlatning asosiga tahdid soladi, deya qayd etadi. A. Jurayev – davlat va xususiy sektor sherikligini "axloqiy hamkorlik va legitimlik tizimi" sifatida tahlil qiladi. X. Ochilov – "davlat xizmatchisining ma'naviy faolligi davlat boshqaruvining axloqiy immunitetini belgilaydi" deydi. A. Axmedov – ijtimoiy hamkorlikni "ishonch va ko'ngillilik" asosidagi aksiologik birlik sifatida talqin qiladi. U. Saliyev – "huquq – bu inson sha'nini himoya qiluvchi axloqiy tizim" degan g'oyani ilgari surib, "huquqning ma'naviylashuvi" konsepsiyasini ishlab chiqqan. Bu yondashuvlar birgalikda O'zbekiston ijtimoiy davlatining falsafiy mohiyatini - adolat, ishonch, hamkorlik va ma'naviy mas'uliyat birligini ifodalaydi.

G'arb va Sharq tajribasining sintezi. Tahlil natijasida O'zbekiston modeli "normativ–aksiologik uyg'unlik modeli" sifatida talqin qilinadi. Ya'ni, G'arbning huquqiy-institutsional tizimi Sharqning axloqiy-ma'naviy qadriyatlari bilan uyg'unlashadi.

G'arb modeli huquqiylik va erkinlik tamoyillarida kuchli, ammo ma'naviy mas'uliyat jihatidan cheklangan. Sharq modeli esa axloqiylik va birdamlikda ustun, lekin institutsional

jihatdan sust. O'zbekiston esa ushbu ikki modelni dialektik sintez qilib, adolat, erkinlik, axloq va ijtimoiy hamjihatlikni bir tizimda birlashtirmoqda.

Bu yondashuvni J. Habermasning "kommunikativ harakat nazariyasi"dagi "normativ kelishuv orqali ijtimoiy integratsiya" g'oyasi bilan bog'lash mumkin. O'zbekiston tajribasi aynan shu asosda — muloqot, hamkorlik va ishonch madaniyati orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Tanqidiy nuqtai nazardan, O'zbekiston ijtimoiy davlat modelida hali ham G'arbning texnokratik yondashuvlari bilan Sharqning ma'naviy qadriyatlari o'rtasidagi muvozanat to'liq shakllanmagan. Ijtimoiy adolatni hayotga tatbiq etish, resurslarni adolatli taqsimlash va fuqarolik madaniyatini kuchaytirish borasida tizimiy islohotlar davom etmoqda.

A. Qayumov fikricha, "ijtimoiy siyosatning samaradorligi normativ huquq bilan emas, balki ijtimoiy tafakkurning o'zgarishi bilan belgilanadi". Bu fikr G. Myrdalning "ijtimoiy rivojlanish axloqiy modernizatsiyani talab qiladi" degan g'oyasi bilan hamohangdir.

Xulosa. O'zbekiston ijtimoiy davlat modeli - G'arb va Sharq sivilizatsiyalarining eng ilg'or siyosiy-falsafiy tamoyillarini sintez qilgan milliy konsepsiyadir. Bu model insonni siyosat markaziga qo'yadi, adolatni davlat barqarorligining asosi, axloqni esa ijtimoiy ishonchning kafolati sifatida talqin etadi.

G'arbda ijtimoiy davlat huquqiy va iqtisodiy tenglik orqali barqarorlikka erishsa, Sharqda u axloqiy uyg'unlik va ma'naviy birlik orqali ta'minlanadi. O'zbekiston tajribasi esa bu ikki yo'nalishni birlashtirib, "inson qadri ustuvor" bo'lgan yangi turdagi sivilizatsion modelni yaratdi. Shunday qilib, O'zbekistonning ijtimoiy davlat konsepsiyasi nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy tizim, balki insonparvar, axloqiy va madaniy uyg'unlikka asoslangan yangi ijtimoiy falsafa sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saydullayev Sh. A., Ahmedshayeva M., Najimov M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 248 b.
2. Satvoldiyev F.A. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari – Namangan, 2024 – 275 b.
3. Mamaziyayev X. Jamiyatda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish: muammo va yechimlar. Наука и инновация, 2025. – С. 39-43.
4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4396419>

5. Xoldorova Z.F. Huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va uning dolzarbligi. Interdiscipline innovation and scientific research conference, 2024. – P. 30-34.